

**MIRZO ULUG'BEK ILMIY FAOLIYATI VA HAYOT YO'LI .**

**Mahmudov Xudayberdi Alisher o'g'li**

Email: [Mahmudovxudayberdi013@gmail.com](mailto:Mahmudovxudayberdi013@gmail.com)

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika intituti Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Jummayev Azamat Dosqobil o'g'li**

Email: [@Azamatjumayev31@gmail.com](mailto:@Azamatjumayev31@gmail.com)

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika intituti Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Xo'jaqulov Aslbek Nizomjon o'g'li**

Email: [albekkhojaqulov@gmail.com](mailto:albekkhojaqulov@gmail.com)

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika intituti Tarix ta'lim yo'nalishi talabalari.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani yozishdan maqsad temuriylar davridagi siyosiy ahvol, siyosiy kurash, mamalakatdagi parokandalik shu bilan birga temuriyzoda Ulug'bek Mirzo hayot yo'li va ilmiy faoliyati manbalar tahlili orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Gavharshodbegim, Sektant, „xonning kuyovi“ Balxga, Abdullatif, Registon maydonida madrasa („universitet“), Qozizoda Rumi.

Amir Temurning nabirasi bo'lmish Mirzo Ulug'bek 1394-yilda Sultoniya shahrida tavallud topgan. Uning otasi Shohruh Buyuk Sohibqironning bevosita davomchisi sifatida Temuriylar imperiyasini bir necha o'n yillar mobaynida muvaffaqiyatli boshqargan. Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim – g'oyatda o'qimishli, san'atda nihoyatda nozik didga ega malika bo'lgan. Bo'lajak podshoh bolalik yillaridanoq boshqalarnikiga o'xshamagan xotirasi, til o'rganishga bo'lgan iste'dodi bilan ajralib turgan. Mirzo Ulug'bek avvaliga arab, so'ng fors hamda hind tillarini, notiqlik san'ati va adabiyot sirlarini o'rgangan. Tarixiy manbaalarning yozishicha, rasadxona tuzilishi silindr shaklida bo'lgan. Uning balandligi 30,4 metr bo'lib, 3 qavatdan iborat edi. Silindr diametri 46,40 metrni tashkil qilgan. Inshoot Temuriylar davri me'morchiligi uslublariga ko'ra qad rostlagan. Uni qurishda alohida e'tibor rasadxonaning seysmik mustahkam bo'lishiga qaratilgan. Shu bois, u bunyod etilgan sertosh tepalik 2,5 metr kovlanib, o'rni pishgan g'isht bilan qoplangan. Hosil bo'lgan bu maxsus yerga mustahkam qilib burchak radiusi hamda vaqtni o'lchash asbobi, ya'ni sektant o'rnatiladi. Sektant shunday o'rnatilgan edi-ki, bir qarashda uning o'rnatilgan joyi noodatiy bo'lib, u janubdan sharqqa tomon yulduzlar yo'nalishini ko'rsatar edi. Aynan ana shunday tuzilishga ega bo'lgani uchun ham, olimning kuzatish va hisob-kitoblari hayratlanarli aniqlikka ega bo'lgan. Sektant ustida barpo etilgan aylana shakldagi binoda bir qancha asosiy va yordamchi xonalardan iborat bo'lgan. Rasadxon Ulug'bek va uning izdoshlari uchun 20 yildan oshiqroq vaqt

davomida Alma-mater, ilmiy markaz bo‘lib kelgan<sup>1</sup>. Ulug‘bek hukmronligi davrida (avval hokim, keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri) uning e‘tibori va homiyligi tufayli temuriylar uyg‘onish davrining madaniy cho‘qqisiga erishdi. Samarqand hokimligi, otasi Shohrux Mirzo tomonidan Ulug‘bekga berilgan<sup>2</sup>. Dastlab uning hukmronligi Samarqand, Buxoro, Nasaf, viloyatlari bilan cheklangan. 1412 yil Mavronnahr va Turkiston hokimiyati 18 yoshli Ulug‘bek qo‘liga o‘tgan 40 yil davomida mamlakatni boshqargan. U 1424—1429-yillarda Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasini qurdirdi. Rasadxona balandligi 31 metr edi. Olimlar nazarida bu rasadxona o‘sha davrda islom olami va Markaziy Osiyodagi eng yirik rasadxona bo‘lgan<sup>3</sup>. Ulug‘bek keyinchalik ko‘plab olimlar tomonidan XV asrning eng buyuk astronomi sifatida tan olingan<sup>4</sup>. Samarqandda va Buxoroda Ulug‘bek madrasasini (1417—1420) qurdirib, ushbu shaharlarni O‘rta Osiyoning madaniy ilm markazlariga aylantirdi. Ulug‘bek nomi turkiycha bo‘lib, „buyuk“ yoki „oqsoqol bek“ ma’nosini bildiradi. Ko‘ragon unvoni mo‘g‘ulcha „kuregen“ so‘zining forscha varianti bo‘lib, „xonning kuyovi“ ma’nosini bildiradi. Biroq Ulug‘bekning davlat boshqaruvini ilmiy faoliyati bilan teng olib bora olmadi. O‘zining qisqa hukmronligi davrida o‘z kuch va hokimiyatini o‘rnata olmadi. Natijada, uning nazoratsizligidan yaqin atrofidagilar foydalandi va suiqasd natijasida o‘ldirildi. Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-martda bobosi Turon hukmdori Amir Temurning besh yillik urushlari davrida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. Otasi Shohrux Mirzo, onasi turkiy qabila zodagonlaridan Gavharshod begim bo‘lgan. Unga Mirzo Muhammad Tarag‘ay ismi berildi. Ulug‘bek asli ism emas, balki „Buyuk hukmdor (bek)“ ma’nosini beruvchi taxallus edi. Ulug‘bekning ustozlari shoir va olim Orif Ozariy bo‘lgan. Bolaligida u Yaqin Sharq va Hindistonning katta qismini kezib chiqdi, chunki bobosi bu hududlarda urushlar olib borgan. Hindiston yurishi davrida bobosi Amir Temurni Samarqanddan Kobulgacha kuzatib borgan. Temur 1404-yilda Xitoyga qarshi yurishidan oldin Sayram, Avliyoota va sharqiy hududlarni boshqarish huquqini nabirasi Mirzo Ulug‘bekka berdi<sup>5</sup>. Temur vafotidan keyin Shohrux imperiya poytaxtini Hirotga (hozirgi Afg‘oniston hududida) ko‘chirdi. Ulug‘bek nomidan zarb qilingan tangalar, 1448-1449-yillar, Hirot 16 yoshli Ulug‘bek keyinchalik, 1409-yilda Samarqandning hokimi bo‘ldi. 1411-yilda u butun Movarounnahrning hokimi deb e‘lon qilindi. Ammo, amalda Hirotidagi otasi Shohrux Mirzo hokimiyatiga bo‘ysungan. 1447-yilda otasi Shohruxning vafotidan xabar topgan Ulug‘bek Balxga jo‘nadi. Bu yerda u o‘zining marhum akasi Boysung‘urning o‘g‘li Alovuddavlaning Hirotida Temuriylar saltanati hukmronligini da’vo qilganini eshitdi. Binobarin, Ulug‘bek

<sup>1</sup> <https://corp.uzairways.com/uz/muhammad-taragay-mirzo-ulugbek-koragoniy-1394-1449yillar>.

<sup>2</sup> <https://depts.washington.edu/silkroad/cities/uz/samarkand/obser.html>

<sup>3</sup> Science in Islamic civilisation: proceedings of the international symposia: „Science institutions in Islamic civilisation“, & „Science and technology in the Turkish and Islamic world“

<sup>4</sup> Ulugh Beg, OU Libraries, Britannica Academic

<sup>5</sup> В. В. Бартольд. Сочинения. Том. II. Часть 2. М.: Наука, 1964. С. 70

Alouddavlagga qarshi yurish qildi va Murg'obda jangda u bilan uchrashdi. U o'z jiyani ustidan g'alaba qozonib, 1448-yilda Hirotga qarab yurdi. Biroq Alouddavlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo unga yordamga keldi va Ulug'bekni mag'lub etdi. Ulug'bek Balxga chekindi va u yerda uning hokimi, to'ng'ich o'g'li Abdullatif Mirzo isyon ko'targanini bildi. Yana ichki urush boshlandi. Abdullatif Amudaryo bo'yida otasining qo'shinini kutib olish uchun qo'shin to'pladi. Biroq Ulug'bek shahardagi notinchlik xabarini eshitib, hech qanday jang bo'lmasdan turib Samarqandga chekinishga majbur bo'ladi. Abdullatif tez orada Samarqandga yetib boradi va Ulug'bek beixtiyor o'g'liga taslim bo'ladi. Abdullatif otasini hibsdan ozod qilib, Makkaga haj qilishiga ruxsat berdi. Biroq, manziliga yetib bormasdan turib otasi va ukasi Abdulazizni ham 1449-yilda qatl qildirtdi<sup>6</sup>. O'smir hukmdor shaharni imperiyaning intellektual markaziga aylantirishni maqsad qilgan. 1417—1420-yillarda Samarqanddagi Registon maydonida madrasa („universitet“) qurdirdi va ko'plab islom astronomlari va matematiklarini o'qishga taklif qildi. Ulug'bekning astronomiya bo'yicha eng mashhur shogirdi Ali Qushchi (1474-yilda vafot etgan) edi. Qozizoda Rumiylar Ulug'bek madrasasining eng ko'zga ko'ringan muallimi bo'lgan va keyinchalik bu o'ringa astronom Jamshid al-Koshiy kelgan. Ulug'bek ilm-fan olamida buyuk astronom sifatida mashhur. Bu borada u amalga oshirgan eng buyuk ish „Ziji jadidi Ko'ragoniy“ deb nomlangan astronomik jadval sanaladi. Ulug'bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she'rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan:

- 1) „Ziji jadidi Ko'ragoniy“ – astronomiyaga oid;
- 2) „Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola“ – matematikaga oid;
- 3) „Risolayi Ulug'bek“ – yulduzlarga bag'ishlangan;
- 4) „Tarixi arba' ulus“ (To'rt ulus tarixi) – tarixga oid.

Otasi Shohrux Mirzo o'limidan keyin Ulug'bek Balxga yurish qildi, chunki Mirzo Alavuddavla ibn Boysunqur Mirzo Hirotidagi Temuriylar hukmdorligiga da'vogarlik qilgan edi. Murg'obda bo'lib o'tgan ushbu to'qnashuvda Ulug'bek g'olib bo'lib Hirot tomon harakat qildi, ammo Alouddavlaning akasi Mirzo Abul Qosim Bobur bilan bo'lgan to'qnashuvda mag'lubiyatga uchrashib, Balxga qaytib kelgach o'z o'g'li Abdullatifni fitnasi tufayli 1449-yilda oktyabrning 27-sanasi, ya'ni 55 yoshida Samarqand yaqinida o'ldirildi<sup>7</sup>. Ulug'bekning yaqinlaridan biri Abdulloh, uni Samarqandning Amir Temur maqbarasi ziyoratgohida keltirgan. 1830-yilda osmon Yulduzshunoslari Johann Heinrich von Mädler oyda bor bo'lgan kraterlarning birini Ulug'bek nomiga musammo qildi.

<sup>6</sup> "Ulug'bek". OU kutubxonalari. Britannica Aka

<sup>7</sup> Rajabov, A (1991). „Dunyoda beshdan bir rasadxona bu“ Fan va turmush. № 2. 4–5-bet.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ulug'bek Mirzo Temuriylarning ko'ga ko'ringan vorislardan bo'lib ilm -fanga katta hissa qo'shgan bo'lib ,rasadxonga asos solib astronomiya ,matematika sohalarida qalam tebratib bizga ulkan meros ya'ni uning 4 katta asari keladi. Butun dunyo uning astranomik jadvalidan yangi asrlargacha foydalanib ,astronomiya ilimi rivojiga shamchiroq bo'lib xizmat qilgan ekan. Bu davr keskin, murakkab kurashlar davri edi. Shunga qaramasdan Mirzo Ulug'bek o'z davlatini mustahkamlab, bu yurtda tinchlik o'rnatadi. Bu davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minladi hamda madaniy hayotni yuksaltirish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Lekin, o'z davrining mashhur hukmdori va olimi Mirzo Ulug'bek 1449-yil 27-oktabrda fojiali halok bo'ldi. Temuriylar saltanatining yorqin vakili Mirzo Ulug'bek hukmronligi shu tariqa o'z poyoniga yetdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://corp.uzairways.com/uz/muhammad-taragay-mirzo-ulugbek-koragoniy-1394-1449yillar>.
2. <https://depts.washington.edu/silkroad/cities/uz/samarkand/obser.html>
3. Science in Islamic civilisation: proceedings of the international symposia: „Science institutions in Islamic civilisation“, & „Science and technology in the Turkish and Islamic world“
4. Ulugh Beg, OU Libraries, Britannica Academic
5. В. В. Бартольд. Сочинения. Том. II. Часть 2. М.: Наука, 1964. С. 70
6. "Ulug'bek". OU kutubxonalari. Britannica Aka
7. Rajabov, A (1991). „Dunyoda beshdan bir rasadxona bu“ Fan va turmush. № 2. 4–5-bet.